

3. Israilovich, D. O., & Komilovna, T. L. (2022). *Optimization of Validity of Text Information Based On Mechanisms with Soft Clustering. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(2), 369-373.*

4. Турсунова, Л., & Жураев, С. (2024). ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 3(2), 35-37.*

5. Yakhiyakhonova, Mukhiba. "The Urgency of Improving the Methods of Developing the Skills of Independent Learning of Future Teachers (on the Example of Information Technology in Education)." *Academicia Globe 2.03: 47-51.*

6. Mahmudjanovna, Yahyokhonova Muhiba. "Increasing the Effectiveness of the Learning Process for the Use of Information and Communication Technologies." *Academicia Globe 2.04 (2021): 206-211.*

SANOAT TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY XUSUSIYATLARI

Saatmurotov Shohrux Zafar o'g'li

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi bilan iqtisodiyot tarmoqlarining moliyaviy ahamiyati oshib boradi. Bu holat kapitalni rivojlantirishga asos yaratib, u, o'z navbatida, iqtisodiyot tarmoqlarining moliyaviy jihatlarini o'zida aks ettiradi. Shunday tarmoqlardan biri sanoat tarmoqlari hisoblanadi. Sanoat tarmog'ini rivojlantirish mamlakatni iqtisodiy siyosati bo'lib hisoblanadi. Xususan, bu borada belgilangan **22-maqсадda “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish”** [1], deb belgilangan.

Darhaqiqat, sanoat yirik tarmoq bo'lib, ushbu tarmoqning mahsulotlari sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqariladi va realizatsiya qilinadi. Sanoat - moddiy ishlab chiqarishning eng yirik, yetakchi tarmog'idir [2]. Unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste'mol tovarlarining ko'pchilik qismi yaratiladi, mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlar unsurlari ishlab chiqariladi, yer osti boyliklarini qazib olish amalga oshiriladi, mineral, o'simlik va hayvon xom ashyosiga ishlov beriladi, keng iste'mol mollari tayyorlanadi va h.k.

Sanoat tarmoqlarini samarali va maqsadli rivojlantirish uchun moliyaviy mablag'larni jalb qilish lozim. Bu orqali mamlakatni iqtisodiyoti ham keng taraqqiy qilib, ushbu tarmoqning samarali va izchil rivojlanishi uchun yetarli ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratiladi. Natijada, sanoat korxonalarining xo'jalik jihatdan o'zaro birlashishi yoki iqtisodiy integratsiyalashuvi amalga oshiriladi. Sanoat tarmog'ini moliyalashtirilishi natijasida sanoat korxonalarida tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslari hamda fan-texnika yutuqlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Sanoat tarmog'ining barcha bo'g'inlarida moliyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli boshqarish moliyaviy vositalardan faol foydalanish natijasida sanoat mahsuloti

ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlarni yaratadi. Bu sanoatni iqtisodiy rivojlantirishga imkon berib, mavjud intensiv omillardan to‘liq foydalanishga qaratilgan mehnat va moddiy resurslarni sarflashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu esa xo‘jalik faoliyatining yangi zaxiralarini aniqlash va ularni har tomonlama safarbar qilish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini o‘z vaqtida ishga tushirish va soha tarkibini samarali rivojlantirishni ta‘minlash, tabiiy resurslarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish hamda aniq iste‘mol maqsadida foydalanishga imkon beradi.

Sanoat tarmog‘ini moliyalashtirishning muhim unsuri sanoat mahsulotlariga narx belgilash orqali uni to‘liq realizatsiya qilishni anglatadi. Sanoat mahsulotlari narxlarining yuqori darajasi xo‘jalik yurituvchi subyektlar xarajatlarini kamaytirishga, ba‘zi korxonalarda iqtisodiy masalalarga alohida e‘tibor berishga hamda sanoatda yuqori qo‘shimcha xarajatlarni sarf qilishga ta‘sir qiladi. Sanoat mahsulotlari narxлари bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxлари o‘rtasidagi tafovut kuchayib borib, ular o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi[3].

Shunisi muhimki, sanoat tarmoqlarini samarali rivojlantirish uchun moliyaviy mablag‘lar yoki resurslar bilan birgalikda moddiy, mehnat va intellektual resurslar ham mavjud bo‘lishi talab qilinadi. Ulardan oqilona foydalanish bevosita sanoat tarmoqlari turlarini potensial tarmoqlarga aylantirish va yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Moliyaviy mablag‘lar hisobiga sanoat tarmog‘ini maqsadli va istiqbolli rivojlantirish uchun sanoat strategiyasi ishlab chiqilishi lozim. Bu sanoat tarkibini izchil tarzda takomillashtirish va istiqbolli rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Aniqroq qilib aytganda, bular tarkibiga yetakchi tarmoq sifatida sanoatni balanslashtirilgan ko‘rinishda izchil rivojlantirish hamda sanoatni modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash yo‘liga o‘tkazish va uning samaradorligini oshirish, shuningdek moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar iste‘molini ratsionallashtirish va tejash kabilar kiradi.

Sanoat tarmog‘ini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizm sifatida turli resurslardan oqilona foydalanishga imkon yaratib, ularning natijasi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning moslashuvchanligi va iqtisodiy faoliyatga ilmiy-texnika taraqqiyot yutuqlarini qo‘llashni taqozo qiladi. Bu bilan mamlakatda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilib, sanoat korxonalarini iqtisodiy boshqarishga, ya‘ni rejalashtirish, baholash, moliyalashtirish va kreditlash muammolarini hal qilishga imkon beradi. Sanoat korxonasida moliyaviy bo‘lim ham faoliyat yuritib, u bevosita moliyaviy-iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanadi. Ushbu bo‘lim sanoat mahsuloti ishlab chiqarish borasidagi hisob-kitoblarni amalga oshirib, shu bilan birga boshqa korxonalar bilan shartnomalar tuzish, mahsulotlarni buyurtmachilarga yetkazish va olingan moliyaviy vositalarni yangi jarayonga jalb qilish kabi vazifalarni bajarishda ham o‘z aksini topadi, shuningdek sanoat korxonasining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashga imkon beradi.

Xulosa shuki, sanoat tarmog‘ini rivojlantirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, uning muhim yo‘nalishi sifatida uning moliyaviy xususiyatlari sanaladi.

Ushbu xususiyat sanoat korxonalari faoliyatini moliyaviy rivojlantirish asoslari, moliyaviy mablag'larni samarali sarflash va undan maqsadli foydalanish mexanizmlari, moliyaviy resurslardan foydalanish muammolari, moliyaviy vositalardan samarali foydalanish jihatlari, sanoat mahsulotlarini sotish va ularga qo'yilgan narxlar chegaralari va sanoat tarmog'ini barqarorlashtirishning moliyaviy mexanizmlari kabi unsurlardan iborat bo'ladi. Bu orqali kelajakda sanoatni yetakchi tarmoq sifatida iqtisodiyot tarmoqlarini yanada liberallashtirishga erishiladi hamda natijada iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish jarayonlarini yakunlashga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yilarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.* <https://lex.uz/docs/5841063>
2. *Xotamov I., Madraximova G. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: “Innovatsiyon rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. - 20 b.*
3. *Тюкавкин И.Н. Роль денежной реформы в восстановлении промышленности страны. // Вестник СамГУ, 2014, №4 (115). – с.111.*

**HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

Shagzatov Oybek Baxodirovich

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi “Inter Forum” DUK direktor o'rinbosari*

Xorijiy investitsiyalar mintaqaviy rivojlanish uchun muhim vosita sifatida keng e'tirof etilgan bo'lib, kapitalni jalb qilish, texnologik yutuqlar, bandlik imkoniyatlari va jahon bozorlariga kirishni kengaytirish kabi ko'plab imtiyozlarni taqdim etadi. Ushbu investitsiyalar iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishiga ko'maklashishda muhim ahamiyatga ega. Biroq barqaror mintaqaviy rivojlanishga erishishda xorijiy investitsiyalar samaradorligi avtomatik emas va turli geografik va iqtisodiy sharoitlarda sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu o'zgaruvchanlik xorijiy investitsiyalar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar va uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga erishish uchun mintaqalar ushbu investitsiyalarni optimallashtirish mexanizmlari haqida jiddiy savollarni tug'diradi.

Mintaqaviy rivojlanishda xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirishning murakkabligi ham investorlar, ham qabul qiluvchi hududlar duch keladigan ko'plab muammolardadir. Bu muammolar tartibga solish va byurokratik tuzulmalarni boshqarish, infratuzilma kamchiliklarini bartaraf etish, investitsiya loyihalarini mintaqaviy rivojlanish ustuvorliklari bilan muvofiqlashtirishni ta'minlashgacha bo'lgan vazifalarni qamrab oladi. Bundan tashqari, global iqtisodiy munosabatlarning dinamik tabiati va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish